



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 458 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari moslashuvining psixologik yondashuvi	254
G. R. Ibragimova, Abdulkarimova Dilfuza	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	258
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotning o'zaro bog'liqligi	262
Avlayev Orif Umirovich	
AR texnologiyasi asosida kompyuter arxitekturasini o'qitishni takomillashtirishning pedagogik asoslari....	267
Saidkarimxonova Dilnozaxon Saidazizxon qizi	
Sun'iy intellektning ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishdagi o'rni	273
Ubbiyev Alisher Tairovich	
Inklyuziv ta'lim bo'yicha respublikada olib borilayotgan faoliyat	277
Sattorova Mohira Aminqulovna	
Tasviriy faoliyat jarayonida maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida emotsional intellektni shakllantirish .	281
Namzabayeva Lola Zakirovna, Malikova Umida Nurliboy qizi	
Sport maktablarida 12–14 yoshli gandbolchilarda to'pni ilish va uzatish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish	285
Ismatullayeva Fotima Rustam qizi	



Методология изучения этнопсихологических аспектов понимания долга перед родителями: цели, задачи и гипотезы исследования	289
Эргашев П. С., Азимова Х. А.	
Uzluksiz ta'lim tizimida metakompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va ularning tasnifi	292
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori	296
G'oyimov Umar Eshmurodovich	
Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning hozirgi holati: tahliliy o'rganish	301
Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna	
Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish	307
Olimjonova Nigina Sobirjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish	312
G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi	
Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni	317
Qodirova Sevara Shuxratovna	
Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	325
Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat samaradorligi	329
Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul	
Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi	333
Boynazarova Munajat	
O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari	337
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий	340
Гаухар Джанпеисова	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari	347
Majidova Hilola Eshquvat qizi	
Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и иностранных языков: интегративный подход	351
Турланова Сауле Дадажановна	
Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish	357
Maxsetova Zuxra Torebayevna	
Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti	361
Karimov Odiljon Baxadirovich	
Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida)	364
Samatova Munira Dilshod qizi	
Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи	368
Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiy tavsifi	373
Ergasheva Matluba Burxonovna	
Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari	378
Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich	

Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi.....	382
Karimov Feruz Raimovich	
Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar	386
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....	389
Masharibova Lobar Rayimberganovna	
Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....	393
Mirtoeva Shohruza Ibjohimjon qizi	
Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish	396
Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova	
Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....	400
Raxmatova Nargiza Dolibayevna	
Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi.....	403
Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....	406
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna	
Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari	410
Sh. T. Musulmonova	
15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash	413
Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	416
Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	419
Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....	422
Turdiyeva Raxima Kurbanovna	
Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	426
Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna	
Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....	432
Г. С. Алиходжаева	
Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..	436
Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева	
Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель	440
Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева	
O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...	444
Murodova Umida Dilmurodovna	
Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку	449
Саидова Махсудахон Аббасовна	
Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....	452
Собирова Пошшаой Эркин кизи	
Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....	455
Хафизова Машхура Аминовна	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI GURUHLARIDA RIVOJLANISH MARKAZLARINI TASHKIL ETISH



G. R. Ibragimova

Osiyo texnologiyalar universiteti
Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchi
ORCID: 0009-0006-3752-0407



Normamatova Rayhona Alisher qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish tamoyillari hamda maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning mazmuni va usullari yoritilgan. Shuningdek, rivojlanish markazlari faoliyatini samarali tashkil etish orqali bolalarning intellektual, ijtimoiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagog, rivojlantiruvchi muhit, innovatsiya, faoliyat, takomillashtirish, pedagogik texnologiya, malaka, ta'lim jarayoni, zamonaviy yondashuv, rivojlanish markazlari, metodlar.

Abstract: This article examines the ways of improving the preschool education system and the principles of organizing development centers in groups of preschool educational institutions. It also describes the content and methods of implementing innovative pedagogical technologies in the preschool education process. Furthermore, the study analyzes the possibilities of developing children's intellectual, social, and creative abilities through the effective organization of development centers.

Key words: preschool education, pedagogy, developmental environment, innovation, activity, improvement, pedagogical technology, skills, educational process, modern approach, development centers, methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути совершенствования системы дошкольного образования, а также принципы организации центров развития в группах дошкольных образовательных организаций. Освещается содержание и способы внедрения инновационных педагогических технологий в образовательный процесс дошкольного образования. Кроме того, анализируются возможности развития интеллектуальных, социальных и творческих способностей детей посредством эффективной организации деятельности центров развития.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагог, развивающая среда, инновация, деятельность, совершенствование, педагогическая технология, навыки, образовательный процесс, современный подход, центры развития, методы.

KIRISH

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning



o'zi nima, biz unda qanday so'zlayapmiz, biz qanday qilib so'zlashni o'rganishimiz haqida esa unchalik ko'p o'ylab ham o'tirmaymiz.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarida kattalar hamda tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi; rahbar, bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Muassasa ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi hamda ularni bolalar bilan, shuningdek ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud. Katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkazilmoqda, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga va texnologiyasiga yangiliklar kiritilmoqda. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya – bu bolalarni turli vositalar yordamida ta'lim materiallarini o'rganish orqali nutqini rivojlantirish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, o'zaro muloqot qilish hamda tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Ta'lim-tarbiya tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va tabiiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay, bexatar va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko'zda tutiladi.

Insonparvar shaxs texnologiyalari bolaga hurmat va muhabbatni, uning ijodiy kuchlariga optimistik ishonchni targ'ib qiladi hamda majburlashni inkor etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib mashg'ulotlarni samarali tashkil etishi, shuningdek ushbu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli tarbiyachi mashg'ulotlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanishi hamda turli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi talab etiladi. Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlarni belgilashlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari hamda ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari zarur.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda, avvalo, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tishini tushunib yetish kerak. Biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Masalan:

Quvnoq matematika: "Xon qizini sanaymiz!" o'yini uchun hovlidan bir nechta yapaloq shakldagi toshlarni bolangiz bilan birga to'playsiz. Ularning bir nechtasiga xonqizining rasmini chizib, ularning hollarini sanagan holda joylashtirasiz va boshqa toshlarga aynan o'sha sonlarni yozasiz. Qo'shish, ayirish va barobar belgilarini ham yozib olasiz. Tayyorlangan xonqizlarining qo'yilgan hollari soni bo'yicha arifmetik ishlanmalar tayyorlab, farzandingiz bilan birga hisoblash mumkin.

Mantiqiy o'yin: "Raqamli moychechak". Kerak bo'ladigan jihozlar: A4 formatdagi oq qog'oz, flomaster, rangli stiker qalamchalari. Oq qog'ozga flomaster orqali moychechak tanasini chizib olamiz va o'rtasiga istalgan sonlarni yozamiz. Alohida rangli stiker qalamchalariga shu sonlarni turli belgilar yordamida joylashtiramiz. Bolalardan aynan shu rangli stikerlar orqali moychechak yaproqlarini shakllantirishlarini so'raymiz (belgilar va sonlar mos kelgan holda).

Rasm chizamiz: "Barmoqlarimiz bilan chizamiz". Kerak bo'ladigan jihozlar: A4 formatdagi oq qog'oz, rangli bo'yoqlar, flomaster. Kerakli rang tanlanib, uni barmoqlarimizga botiramiz va qog'ozga bosib tushiramiz. Tayyor shakllarga flomaster yordamida ishlov beramiz.

Harakatli o'yin: "To'pni yumalat!". Bu o'yinda bolalarga to'pni yumalatish va ilib olish o'rgatiladi hamda ularda harakatchanlik xususiyatlari tarbiyalanadi. Bolalar polda doira bo'lib o'tiradilar (oyoqlarini kerib, oldinga uzatib yoki chordana qurib o'tiradilar). Ota-onalar qo'lida to'pni ko'tarib doiraning o'rtasida o'tiradi. U to'pni navbat bilan har bir bolaga qarab yumalatadi, bolalar ilib olgan to'pni yana ota-onasiga yumalatadilar. Ushbu harakatlarni o'zlashtirib olganlaridan so'ng doira markazida ota-onaning o'rniga bolalardan biri o'tirishi mumkin.

Faollik markazlarini tashkil etishning mazmun-mohiyati "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi bilan uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Albatta, maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bunday innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglardan bola tarbiyasi va uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi.

Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda kuzatib borishlari zarur bo'ladi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalari tajribada sinab ko'rish istaklariga qaratilgandir.

Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishlariga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash jarayonida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish qobiliyatlari faollashadi. Bu jarayonda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ortiqcha axborot bilan chalg'itmasdan, uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalikda izlashdan iboratdir.

Faollik markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalar o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarning mustaqil guruhlarda ishlashi va individuallashtirish jarayonida tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, har bir bola undan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan hamda bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilganda topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va pedagogik jarayonni samarali tashkil qilish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. O'. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritib, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llash ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishning samarali mexanizmlarini yaratadi hamda ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Sh. M. Egamnazarova maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tahlil qilib, bolalarda ijtimoiy, axloqiy va estetik fazilatlarni shakllantirishda pedagogning kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Muallif maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida turli metod va usullardan foydalanish, ayniqsa, o'yin faoliyatiga asoslangan yondashuvlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishini asoslab beradi. Bunday yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini inobatga olish imkonini yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish masalasi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ham alohida e'tirof etilgan. Mazkur dasturda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish orqali bolalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilishi ta'kidlanadi. Dasturga muvofiq, guruhlarda tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh. A. Sodiqova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslarini tadqiq etib, rivojlantiruvchi markazlar bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, rivojlanish markazlari bolalarning faol ishtirokiga asoslangan ta'lim muhitini yaratadi hamda ularning bilish faolligini oshiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni samarali tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etishning pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaldagi o'quv dasturlari tahlil qilindi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'rganish jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat va so'rovnomalar usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida rivojlanish markazlarining tashkil etilishi, ularda olib borilayotgan mashg'ulotlar va bolalarning faol ishtiroki kuzatilib, tegishli ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar



qiyosiy va tavsifiy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, ularning pedagogik samaradorligi baholandi. Shuningdek, to'plangan natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish usullari yordamida tahlil qilinib, rivojlanish markazlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

1. Qurilish va konstruksiyalash markazi;
2. Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi;
3. Til va nutq markazi;
4. Ilm-fan va tabiat markazi;
5. San'at markazi;
6. Musiqa va ritmika markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanish darajasini egallagan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar.

Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil faoliyat tashkil etiladi. Ular tomonidan tanlangan mashg'ulotlarga vaqt ajratish zarur, chunki bolalar ongli ravishda tanlashni o'rganadilar hamda o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar. Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrof-dagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim.

Har bir guruhda 5 ta markaz bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar. Masalan, ular ko'rgan tarixiy obidalar, uylar, garajlar, fermalar va boshqa obyektlarning modellari yaratishlari mumkin.

Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. Bu faoliyat bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi hamda muammolarni hal etish tajribasini shakllantiradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashuvni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun zarur kiyimlar va boshqa jihozlar bo'lishi lozim. Bu vositalar bolalarda atrofda sodir bo'layotgan jarayonlarni anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

Til va nutq markazida kitoblar hamda eshitish va yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni ko'zdan kechirishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu (syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi hamda bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan materiallar bo'lishi lozim. Bu yerda bolalarning taqqoslash, tasniflash va sanash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlar ham tashkil etiladi.

San'at markazi bolalarning o'z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi. Bu yerda bolalar yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish hosil qiladilar va ularning sezgi qobiliyatlari boyiydi. Ushbu markazda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari hamda kesish va yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud bo'ladi. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog'och, barg, qum va tuproqdan foydalanish ham foydali hisoblanadi.

Markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, so'z orqali va so'zsiz muloqot qilish, umumiy va nozik harakatlarni shakllantirish hamda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish hamda bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab zarur sharoitlarni o'z vaqtida moslashtirish va ularni kuzatib



borishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so'ng, muayyan ko'nikmalarga alohida e'tibor berish maqsadida ishlab chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishiga va ularni mustahkamlashiga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib borishga hamda kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markazlari faoliyatida bolalarga quyidagilar o'rgatiladi:

- muammolarni hal eta olish;
- ijodiy tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat va atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga hamda ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga kuchli rag'bat uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: "Fan", 2006-yil, 298 b.
2. Egamnazarova Sh. M. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". – T.: Ilim Ziyo, 2016-yil.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – T.: 2022-yil.
4. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha ta'limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. – T.: 2022-yil.
5. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5-th May, 2023. ISSN: 2835-5326. Website: econferenceseries.com.
6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga 9-ilova // "Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi".

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.